

## FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY ASPEKTDA O'RGANILISHI

*Shuxratova Zebo Shavkat qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti*

*Ilmiy rahbar: Sadullayeva Nilufar Azimovna*

**Annotatsiya:** Maqolada frazeologizmlarning ingliz va o'zbek xalqlari ma'daniyatidagi o'rni haqida ma'lumot berilgan. Ingliz va o'zbek olimlarining fikrlari o'rganib chiqilgan, qiyoslangan. Nazariy ma'lumotlarga munosabat bildirilgan.

**Kalit so`zlar:** frazemalar, lug'aviy birlik, lingvomadaniy aspekt, chog'ishtirma tadqiq, leksik birlik, sinonim, frazeo-semantik guruhlar, media matn

Darhaqiqat, har bir xalq va millatning boshqalaridan farqlanuvchi milliy-madaniy xususiyatlari bor. Bularga milliy-madaniy an'analar, urf-odatlar, gapirish usuli, nutq madaniyati kabilar kiradi. Mana shu jarayonlarda o'zbek tili va ingliz tilidagi media matnlarida uchraydigan frazeologizmlarni milliy-madaniy aspektda o'rganish maqsadga muvofiqdirdi.

Tilning frazeologik majmui tarkibi mamlakat yoki xalqning ma'lum bir davrda o'ziga xos belgilari va xususiyatlaridagi rivojlanish natijasida jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi o'ziga xos o'lchami hisoblanadi. Shuning uchun har qanday tilda xalqning milliyligi, an'analari va urf-odatlarini namoyon qiluvchi ko'plab turg'un birikmalar (frazeologizmlar) yuzaga keladi. Deyarli barcha frazeologizmlarda til va milliy-madaniyat orqali dunyo manzarasini anglatadigan xususiyatlar mavjud. V.V. Vinogradovning ilmiy ishlarida mazkur birliklar nafaqat tilni boyitishda muhim rol o'yndaydi, balki umummadaniyatda ham katta ahamiyatga egadir<sup>1</sup>, deya ta'kidlangan.

Bugungi kunda tillarni milliy-madaniyat, milliy-madaniyatni esa til nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy manbalarga asoslangan holda tadqiq etish zaruriyati sezilmoqda. Bu masalada hozirgi zamon tilshunosligida til birliklari xususiyatlarini o'rganishga lingvomadaniy yondashuv juda muhim<sup>2</sup> ekanligiga to'xtalib o'tsak. Lingvomadaniy yondashuv munosabatning milliy xususiyatini o'zida aks ettiruvchi vositalar tizimida ta'sir etadigan omillar majmuuni nazarda tutadi va bilishning o'sishi qanday ro'y berishini kuzatadi<sup>3</sup>. Bundan tashqari, bu til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatning tilshunoslikda doimiy mantiqiy rivojlanishidir<sup>4</sup>. Eng

<sup>1</sup> Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука. 1977 г. – 58 с.

<sup>2</sup> V.A. Maslova 2001, V.V. Vorob'ev 1997, Yu.S. Stepanov 1997, V.V. Krasnaya 2002

<sup>3</sup> Nefedova, Pasynkeeva 2003: 43.

<sup>4</sup> Евсюкова Т.В. Лингвокультурология. Учебник. 2-е издание. – М.: Изд «Флинта» 2014 г. – 21 с.

avvalo, lingvomadaniy munosabatning asosiy o'ziga xos xususiyatlarini yoritish uchun hozirgi zamon tilshunosligida «lingvokulturologiya» termini ostida nima tushunilishini aniqlash lozim bo'ladi. Ushbu ilmiy sohaga katta qiziqish uyg'onganligi sababli uning turli jihatlarini ifodalaydigan ta'riflar soni oshadi.

V.V. Vorobev lingvokulturologiya bu – tizimli uslublar hamda madaniy tuzilish yordamida madaniy va lisoniy birliklarning asosiy tuzilishi jarayonini aks ettiruvchi til va madaniyatning o'zaro munosabati hamda bog'liqligini o'rganuvchi, umumlashtiruvchi tipdag'i kompleks ilmiy soha deb hisoblaydi<sup>5</sup>.

V.A. Maslova bu sohaga oid quyidagi ta'rifni beradi: lingvokulturologiya bu – tilshunoslik va madaniyatshunoslik o'rtasida paydo bo'lgan, tilda o'rnashib qolgan va namoyon bo'ladigan xalq madaniyatining o'zida aks etishini tadqiq qiluvchi tilshunoslikning alohida yangi sohasidir. Ushbu sohaning maqsadi milliy madaniyatni o'zida aks ettirib, tilshunoslikda gavdalangan til birliklarini o'rganish usullarini namoyon etishdir<sup>6</sup>. Til birliklaridagi madaniy ahamiyatni izohlab berish lingvokulturologiyaning vazifasi hisoblanadi.

V.V. Vorobyov lingvomadaniy izlanishlarning eng asosiy vazifasi xalq madaniyatining o'z tilida, shevalarida va til rivojlanishi jarayonida butunligicha namoyishi, deb hisoblaydi<sup>7</sup>. Lingvokulturologiyada tilga dunyoni anglashning eng birlamchi mukammal shakli, madaniyatning ajralmas qismi, ajdodlardan avlodlarga meros, madaniyatni o'zimizga singdirib olish uchun imkoniyatlar olamni bilish va u haqda madaniy ma'lumotni ifodalovchi vosita sifatida qaraladi<sup>8</sup>. V.A. Maslova ham xuddi shunday nuqtai nazarga asoslanadi: «Xalq madaniyati va mentalitetini til orqali ochib berish lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi». Lingvokulturologiyaning asosiy obyekti milliy-madaniy ma'lumotlar translyatoriga (o'tkazuvchi vositalar) ega bo'lgan til va tildan foydalanib, madaniyatni yaratuvchi inson preferentsiyasi va uning tuzilishi bilan madaniyatning o'zaro munosabatlarini tadqiq qilishdir<sup>9</sup>.

Hozirgi zamon tilshunosligi «til birlamchimi yoki madaniyat» degan munozara yuzasidan bir tomonlama determinizmga barham berdi. Chunki bu munozarada birinchi navbatda ikki tomonlama determinizm kuzatiladi<sup>10</sup>. Tilni o'rganishga inson diqqat markazi orqali yondashuvi inson yaralishiga e'tiborsiz bo'lishi mumkin emas. Aynan shu yaralish natijasida til va madaniyat o'rtasidagi munosabat amalga oshadi.

<sup>5</sup> Воробьев В.В. Лингвокультурология. Учебник. – М.: Изд РУДН. 2006 г. – 47 с.

<sup>6</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студентов высших учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 3 с.

<sup>7</sup> Воробьев В.В. Лингвокультурология. — М.: Издательство РУДН, 2006. – 12 с.

<sup>8</sup> Воробьев В.В. Лингвокультурология. — М.: Издательство РУДН, 1997. – 36 с.

<sup>9</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: «Академия», 2001. – С. 30,35.

<sup>10</sup> Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика. – М.: 1996 г. – 66 с.

Shuning uchun ham har qanday lingvomadaniy tadqiqot ayni paytda kognitiv izlanish ham hisoblanadi<sup>11</sup>.

V.A. Maslovaning yuqoridagi ta’rifiga tayangan holda bunday ta’rifni beramiz, lingvokulturologiya – bu o’ziga xos makon ostida til va madaniyat o’rtasidagi munosabatning muammolarini o’rganuvchi, o’z xususiyatlariga ega bo’lgan, tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutashgan joyida paydo bo’lib, til va madaniyatning o’zaro aloqalari haqidagi kompleks ilmiy bilish sohasidir. Qisqa qilib aytganda, til va milliy-madaniyat masalalarini ma’lum bir izchillikda o’rganishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqot yo’nalishidir. Lingvokulturologiya bu – til va madaniyat muammolarini birgalikda va bir butun tizimlilikda o’rganishga qaratilgan ilmiy yo’nalishdir. Ayni vaqtida bu sohada jahon tilshunosligida anchagina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va amalga oshirilmoqda.

Tilshunoslikning maqol, matal, parema, aforizm kabi hikmatli iboralari, ya’ni frazeologizmlar ifodalayotgan fikrlarda ma’no mohiyatan ham quymaligi, ham sintaktik bir butunlikni tashkil etadi. Ularning mazmunida til va tarixga oid ma’lumotlar uchragani sababli, ularning bugungi kunda jiddiy tarzda til va milliy-madaniyat nuqtai nazaridan, ya’ni lingvomadaniy jihatdan ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy o’rganilishi tabiiy holdir.

Olamning frazeologik manzarasi dunyoni anglash va bilish, obyektiv borliqni baholash, ma’lum bir asos va xususiyatlarga tayanilgan holda ilmiy tasnif qilish va ular orasidagi munosabatlarga nazariy va amaliy asoslar sifatida xizmat qiluvchi, inson tafakkuri uchun universallikni tashkil qiladi.

Leksika va frazeologiya vositalari orqali tasvirlanadigan olam manzarasi – bu muloqot vositasi vazifasini bajaruvchi, fikr, mulohaza tarkibida uning aloqalari va munosabatlari turli-tumanligi bilan obyektiv borliqning har tomonlama tasviriga tayanadigan olamning til manzarasi «pastki qatlami»dir. Tilning leksika va frazeologiya bo’limlari olam manzarasining daliliy mazmunini ifodalasa, mulohaza qilish esa turmushning makon va zamon tavsifida muhim o’rin egallaydigan, voqeahodisa mavqeyidir. Shu sababli har qanday turdagи bilish jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo’lishi ham tabiiydir<sup>12</sup>.

Olamning frazeologik manzarasida mavjud farqlovchi belgilarning eng muhimlari deb quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

- 1) frazeologik universallik;
- 2) frazeologik antropotsentrizm;
- 3) frazeologik ekspressivlik.

Quyida ularni birma-bir ko’rib chiqamiz:

## 1. Frazeologik universallik

<sup>11</sup> Карасик В.И. Слыскин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования. 2001. – 76 с. 20.

<sup>12</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, Сангзор, 2006. – 62-б.

Tillarda frazeologik birliklar mavjudligining o'zi lingvistik universallikni namoyish qilishga dalildir, ya'ni tarkibida frazeologik iboralar bo'lmanan tilning o'zi yo'q. Shuningdek, mavjud frazeologizmlar har bir tilda o'zgarishsiz, tayyor holda qo'llaniladi. Bu ham universallikning alohida bir ko'rinishi sanaladi. Til birligi sifatida frazeologizmlarning asosiy xususiyati universallik hisoblanadi: «tarkib topgan komponentlari semantik bog'lanishi va ularning leksik ma'nosi yig'indisidan idiomalarning umumiyligi ma'nosi kelib chiqmasligi»<sup>13</sup>. Bu holat frazeologizmlarga oid asosiy ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy qarashlarning mazmunini bildiradi.

Frazeologizmlarning universal xususiyati nafaqat ularning semantikasida, balki tuzilishida ham namoyon bo'ladi. Har qanday tilning frazeologiyasida tilning universal semantik kategoriyasi o'z ifodasini topadi. Bundan tashqari, frazeologik obraz asosida shakllangan frazeologizmlar semantikasida bizni qurshab turgan olamning muayyan realiyasi bilan bog'liq umuminsoniy madaniy konnotatsiya mustahkamlanib qoladi. Bunga yorqin misol tarkibida oziq-ovqat nomlari qo'llangan frazeologizmlar hisoblanadi. Deyarli barcha tillarda «suv» – obi hayot, hayot manbai; «non» – aziz va muqaddas rizq-ro'z, «sut» soqlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi: ingliz tilida milk and honey – suv o'rniga sut oqadigan, qor o'rniga shakar yog'adigan afsonaviy joy, mo'lllik, mo'l-ko'lchilik; milk the market (the street) qimmatli qog'ozlar bilan muvaffaqiyatli ish yuritish ma'nolaridagi frazeologizmlar misollarida ko'rindi.

O'zbek tilida «nondek aziz» – qadrli va muqaddas narsalarga nisbatan qo'llaniladi. Bu «qalbi(ko'ngli) sutdek toza», «qalbi daryo», «ko'ngli ochiq» va beg'ubor insonlarga nisbatan ishlataladi. «Suvdek serob bo'ling» iborasi esa suv berilganda minnatdorlik sifatida aytildi.

Har bir tilning frazeologik tizimida muayyan xalqning olam manzarasini anglatishi natijasida butun borliqni ishonchli tarzda obrazli tasvirlaydi. Ayni paytda frazeologik tizimda mustahkamlangan obrazlar tizimi orqali dunyonni ko'rish usuli, D.O. Dobrovolskiyning so'zi bilan aytganda, «barcha insonlar uchun umumiyligi universal mantiqiy-psixologik va aslida lisoniy zamin» deb asoslanadi<sup>14</sup>. Shu sababli turli tillarda frazeologizmlar hosil bo'lishi va shakllanishining umumiyligi qonun qoidalari, frazeologizmlar tasnifining mavzuyi-idiografik tamoyillari universalligi borasida frazeologizmlarning yuzaga kelishi o'xshash va farq qiluvchi namunalari mavjud deb ta'kidlashimiz mumkin.

## 2. Frazeologik antropotsentrizm.

Olamning lisoniy tasviri markazida insonning o'zi turadi, shuning uchun olamning frazeologik manzarasida butun borliq qiymatining asosiy mezoni birinchi navbatda inson – uning gavdasi, hissiyotlari, holati, talablari va qiziqishlaridir. Inson

<sup>13</sup> Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. — М.: Наука, 1956. — 57 с.

<sup>14</sup> Добровольский Д.О. Национально-культурная специфика во фразеологии (1) // Вопросы языкоznания. 1997,

№ 6. — 7 с.

o'z atrofidagi olamni xuddi o'zi kabi mavjudod yaratgan deb idrok qiladi. Mana shu holat antropotsentrik ilmiy yo'nalihsning mohiyatini ifodalaydi.

Ma'lumki, tilning antropotsentrik mohiyati haqida L.V.Sherba va V. Gumboldning ishlarida tilga olingan. Keyingi yillarda tilda inson omillarining muammolari tilshunoslikda (Yu.N. Karaulov, N.D. Arutyunova, V.S. Yurchenko va boshqalar) va falsafiy aspektida (G.F. Kuznetsova, L.A. Mikeshina) tadqiq qilingan. Antropotsentrizm tilda ontologik jihatdan aks ettiriladi: birinchidan olam borlig'i talqiniga, ikkinchidan uning borliqning muhim baholash ma'nosining tavsifiga asos bo'ladi.

Biz subyekt deb biladigan, olam predmetlari, eng avvalo, insonning yashash jarayoni, harakatlari va tanasining tuzilishida ma'lum bir o'xshashliklarni kuzatganda, albatta, bir narsadan ikkinchi narsaning farqi o'z o'zidan taqqoslanadi. Bu ifoda doirasida iboraning quyidagi komponentlari: inson tana a'zolari va qismlari nomlari (bosh, oyoq, ko'z, qosh, qulqoq, yurak, barmoq, qon va boshqalar), inson zotining tabiiy holatlari (hayot, o'lim, yashash, o'lish, uyqu, uqlash, nafas, nafas olish, yeyish, ichish, ovqatlanish), harakat va holat nomlari (borish, yotish, turish, o'tirish, olish, tutish va boshqalar), intellektual va emotsiyal jarayonlarning nomlari (o'ylash, hal qilish, ong, idrok, aql, ko'ngil va boshqalarning) qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari turmush insonning bevosita amaliy faoliyati, ijtimoiy rivojlanishi muhiti bilan baholanadi. Shuning uchun ham frazeologizmlar tarkibida inson amaliy faoliyati asosida tarkib topgan voqeа hodisalar va predmetlar: kundalik hayot, turmush predmetlari, oziq-ovqat, kasb-hunar, qarindoshlik atamalari qo'llaniladi. Insonning yashash tarzidagi haqiqiy hayotni aks ettiruvchi frazeologik birlklarning ko'p sonli so'z komponentlari samo, yer, flora, fauna, oziq-ovqat, ob-havo va boshqalar hisoblanadi. Shunday qilib olamning frazeologik manzarasi – bu inson o'zini haqiqiy borliqning bir qismi deb biladigan va butun atrofni o'zining tirikligi aksi deb qabul qiladigan, «insoniylashtirilgan» obrazli olam namunasidir. Demak, antropotsentrizm ilmiy yo'nalihsida inson, uning organizmi va ijtimoiy hayotdagi faoliyati asosiy diqqat markazida turadi. Inson ijtimoiy faoliyatlarisiz olam to'g'risida mulohaza yoki fikr yuritishi ma'lum bir ma'noda ishonarsiz ham bo'ladi.

### 3. Frazeologik ekspressivlik.

Olam frazeologik manzarasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning ekspressivligi yoki ifodali tasviriy sifat majmuidir.

Insonning ruhi va qalbidagi hissiy holatlar natijasida frazeologizmlarda ham emotsiyonallik aks etadi. Nutqiy faktlar, jumladan frazeologizmlarning emotsiional-ekspressiv bo'yog'i konnotatsiya tushunchasi bilan bog'lanadi. Chunki ekspressivlik jarayoni emotsiyonallik bilan bog'liqdir, ya'ni ma'lum sharoitlarda yuzaga keladigan kishilarning his-tuyg'ulari inson harakatlarining tezlashuvi bilan aloqadorlikda sodir bo'ladi. Emotsional-ekspressivlik va konnotatsiya tilshunoslikka oid tadqiqotlarda

ko'pincha sinonimik tushuncha sifatida qo'llanadi, lekin V.N. Teliyaning fikri bo'yicha, ekpressivlik til konnotativ vositasining qo'llanilishi natijasi hisoblanadi. «... Konnotatsiya bu mulohazani «qat-qatlash» degan gap va unga ekspressiv bo'yoq beradi, mulohazaning o'zi ikki tomonlama bo'ladi – u olam haqida ma'lumot beradi va belgilangan nutq subyektiga hissiy munosabat ifodalaydi»<sup>15</sup>. Lisoniy mohiyatda konnotativ ma'noning namoyon bo'lishi, shubhasiz, so'z bilan bir qatorda, frazeologizmlarning nominativ funktsiyalari uchun ikkinchi o'rinda keladi. Demak, konnotativ ma'no so'zga yuklangan qo'shimcha ma'no mohiyatdir. Frazeologizmlardagi konnotativ ma'no ularning leksik-semantik xususiyatlari ko'ra ma'lum bir tizimlilikka ega bo'ladi.

V.L. Arxangelskiy frazeologizmlarni o'rganishda turg'un so'z birikmalarining ma'nolari va ularning etimologiyasi, tarixi va insoniyat faoliyatida turli xil sharoiti bilan bog'liqligi – «bularning hammasi mahsus izlanishlarni talab qiladi», deya o'z munosabatini bildirgan<sup>16</sup>. Bu ham frazeologizmlarga turli tomondan e'tibor berish kerakligini dalillab turibdi.

V.N. Teliya frazeologizmlarning madaniyat va muayyan xalq hayoti bilan bog'liqligi jihatidan izlanishlarga katta ahamiyat beribgina qolmasdan, berilgan kontekstda frazeologiyani o'rganishda uchta muhim masala mavjudligini ko'rsatadi<sup>17</sup>. Birinchi masala – madaniy soha predmetiga oid turli ekstralengvistik omillarda frazeologizmlarni belgilash bilan bog'lanadi. O'sha tilning vosita va usullari ta'rifi frazeologizmlarga o'zining belgi shaklida madaniyatni aks ettiruvchi xususiyatlarni beradi.

Ikkinci masala – madaniyat va til o'rtasidagi munosabatlarning tadqiqida keskin farq qiluvchi yo'nalishlar etnolingvistika va lingvokulturologiya doirasida amalga oshiriladigan frazeologizmlar madaniy semantikasi tavsifi, o'rganilishi natijalari va usullarida tafovutlarni aniqlashga taalluqlidir.

Uchinchi masala – til sohiblari xalqning milliy-madaniy mentalitetini aks ettirishda ishtirok etuvchi madaniyatning avloddan avlodga o'tkazuvchi belgilarini esga tushiruvchilik vazifasida ishtirok etadigan frazeologizmlari tarkibini o'rganadigan usullarni ishlab chiqaradigan baza asosida umumiy metodik platformalarni o'rnatish bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga qamrab oladi<sup>18</sup>.

<sup>15</sup> Телия В.Н. Русская фразеология семантико-прагматический и лингвокультурологические аспекты. – М.: Шк. «Языки русской культуры», 1996. – 5 с.

<sup>16</sup> Архангельский В. І. Устойчивые фразы в современном русском языке. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. Ростов-на-Дону: Изд-во Рост, ун-та, 1964. – 55 с.

<sup>17</sup> Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. – М.: "Языки русской культуры", 1999. – 13 с.

<sup>18</sup> Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. – М.: "Языки русской культуры", 1999. – С 13-14.

Frazeologizmlarning qandaydir so'z turkumida paydo bo'lishi, mavjudligi va qo'llanilishi, bu xalqlarning bir butun turkum madaniyati bilan bog'liq bo'lib, barcha xalqlarning milliy tengligini va alohida qiyofa sifatida o'z mohiyatini anglatishni belgilaydi. Frazeologizmlarning shakllanishi va qo'llanilishida madaniyatning ta'siri etnolingvistika, lingvokulturologiya sohalarida o'rganiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, «madaniyat» tushunchasi nafaqat kishilik jamiyati rivojlanishining ma'lum darajasini o'z ichiga oladi, balki bilishning fahmlab yetilgan va anglab yetilmagan qatlamlarini ham o'ziga singdirgan, murakkab va ko'pqirrali ta'limni o'zida namoyon qiladi<sup>19</sup>.

Etnolingvistika – bu «til va ma'naviy madaniyat, til va xalq mentaliteti, til va xalq ijodiyoti, ularning o'zaro bog'liqliklari va turli sohalardagi aloqalarini kuzatishda tadqiqotchilarga tushinishda yordam beradigan», tilshunoslikning bir yo'nalihidir. Etnolingvistikaning asosiy vazifasi turli davrlarda madaniyatni qiyoslash uchun har xil materiallarni beruvchi, ularning diaxronik harakatida xalq madaniy, psixologik va mifologik tasavvurida shu til orqali aks etishini tiklashdan iboratdir.

Lingvokulturologiya doirasida xalq mentalitetiga asos bo'lgan va turli tipdagi diskurslarda frazeologizmlarning qo'llanilishi jarayonida uni ifodalaydigan, hozirgi kun madaniy mohiyatini aks ettiruvchi frazeologizmlarning xususiyatlari o'rganiladi. Lingvokulturologiyaning ushbu sinxron aspekti uni N.I. Tolstoy, «Etnosning o'ziga xos xususiyatlari – milliylik va xalq avlodini hisobga oladi», deya tasdiqlagan etnolingvistikaning maqsadidan aniq ajratadi<sup>20</sup>.

Tilning frazeologik tarkibini lingvomadaniy o'rGANISHNING asosiy maqsadi tildan foydalanish jarayonida u bilan birgalikda tasvirlangan va til belgilari kontseptual tarkibida xulosalangan milliy-madaniy konnotatsiya ta'rifi asosida hozirgi kun til turkumi vakillari madaniy-lisoniy kompetentsiyasini namoyish qilishdir. Mazkur madaniy konnotatsiya orqali har qanday tilga oid umummadaniy mentalitetining bir qismi sifatida madaniy va lisoniy mohiyatni anglashi to'g'risidagi axborot beriladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar ma'lum bir xalqqa tegishli madaniy fondning muhim bir qismi sifatidagi madaniy meros hisoblanib, milliy xarakterning eng yorqin tasviridir. «Xalq fe'l-atvor ramzi asosan qayerda o'z ifodasini topadi?», – degan savolga javob aniq: badiiy adabiyot va folklor, ya'ni xalq og'zaki ijodi, shuningdek, frazeologizmlar majmui hisoblanadi. Bu aspekt xalqning madaniy bilimlari, zakovati va donishmandligiga ochiq oydin e'tibor qaratiladigan barcha til qatlamlari: turg'un birlik, frazeologizm, maqol, matal hamda aforizmlar orqali ifoda etiladi. Bu frazeologizmlar muayyan xalq ma'naviyati va madaniyatining tub mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni keltirib chiqaradi.

<sup>19</sup> Петренко В.Ф, Митина О. В. Анализ динамики общественного сознания. Смоленск: Смол. гум. ун-т, 1997. – 105 с.

<sup>20</sup> Толстой Н.И. Язык и народная культура. Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. – М.: Индрик, 1995. – 27 с.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука. 1977 г. – 58 с.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, Сангзор, 2006. – 62-б.
3. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Наука, 1956. – 57 с.
4. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. – М.: "Языки русской культуры", 1999. – С 13-14.
5. Петренко В.Ф, Митина О. В. Анализ динамики общественного сознания. Смоленск: Смол. гум. ун-т, 1997. – 105 с.
6. Толстой Н.И. Язык и народная культура. Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. – М.: Индрик, 1995. – 27 с.
7. Архангельский В. Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. Ростов-на-Дону: Изд-во Рост, ун-та, 1964. – 55 с.
8. Проблемы фразеологической семантики / Под ред. Г.А. Лилич. СПб.: Просвещение, 1996. – 172 с. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. М.: Наука, 1956. 208 с. Диброва Е.И. Вариантность фразеологических единиц в современном русском языке.: Изд-во Ростовского ун-та, 1979. – 192 с.